

---

## Sug'd tarixiy geografiyasini o'rganishda musulmon geograflarining tutgan o'rni

Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li

[sarvarnorboyev075@gmail.com](mailto:sarvarnorboyev075@gmail.com)

tayanch doktoranti

Toshkent davlat texnika universiteti

**Annotatsiya** *Markaziy Osiyoning markazida joylashgan Sug'd vohasi qadimgi Ipak yo'lining iqtisodiy, madaniy, etnik, til va diniy markazi bo'lib kelgan. Musulmon geograflari tomonidan Sug'd o'lkasining chegaralari va bu o'lkaga tegishli shahar va qishloqlar to'g'risida bir-biridan farqli ma'lumotlar berganliklarini ilmiy asoslashga harakat qilingan. Musulmon geograflari orasida Sug'd o'lkasi hamda Samarqand va Buxoroning o'rni masalasida tortishuvli ma'lumotlar keltirib o'tishlari bejiz bo'lmay, bu narsa vaqti-vaqti bilan mintaqada yuz bergan siyosiy va ma'muriy o'zgarishlar natijasi edi. Mintaqada yangi boshqaruvchi sulolaning hokimiyatni qo'lga kiritishi va siyosiy-ma'muriy boshqaruvga o'zgartirishlarni amalga oshirishlari, boshqaruv markazlarining o'rin almashtirishi va hokozolar mahalliy xalq nazdida yangicha talqinlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu kabi tarixiy voqealarni mahalliy xalq vakillaridan eshitgan musulmon geograflari Sug'd va uning tarkibiy qismlari masalasida turlicha bahs-munozara yuritishlar sabab bo'lganligi ehtimoldan yiroq emas. Ushbu maqolada O'rta Osiyoning qadimiy tarixiy-madaniy o'lkalaridan biri Sug'd vohasining tarixiy geografiyasini, uning chegaralari va xalqaro savdo, iqtisodiy munosabatlardagi faol ishtiroki, aholisini va moddiy madaniyatini o'rganishda musulmon geograflari tomonidan berilgan fikr mulohazalar hamda hududning o'rganilish darajasi ham tadqiq etilib, qator xulosalar berilgan.*

**Kalit so'zlar** *Sug'd, Samarqand, Kesh, Buxoro, musulmon geograflari, tadqiqot, hudud.*

---

## Роль мусульманских географов в изучении исторической географии Согда

Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли

[sarvarnorboyev075@gmail.com](mailto:sarvarnorboyev075@gmail.com)

Базовый докторант

Ташкентский государственный технический университет

**Аннотация** *Согдийский оазис, расположенный в самом сердце Центральной Азии, был экономическим, культурным, этническим, языковым и религиозным центром древнего Шелкового пути. Сделана попытка научно обосновать тот факт, что мусульманские географы давали разные сведения о границах Согдийской области и городах и селах, входящих в эту область. Недаром мусульманские географы передавали противоречивые сведения о местоположении Согда, а также Самарканда и Бухары, что было следствием политических и административных изменений, время от времени происходивших в регионе. Приход к власти в регионе новой правящей династии и осуществление*

*изменений в политическом и административном управлении, перемещение административных центров и т. д. привели к появлению новых идей среди местного населения. Неудивительно, что мусульманские географы, услышав от местных жителей о таких исторических событиях, начали спорить о Согде и его составных частях. В статье рассматривается историческая география Согдийского оазиса, одной из древнейших историко-культурных земель Средней Азии, его границы и активное участие в международных торгово-экономических связях, его население и материальная культура, а также уровень изученности региона, делается ряд выводов.*

**Ключевые слова** Согд, Самарканд, Кеш, Бухара, мусульманские географы, исследование, область, регион.

---

## The role of Muslim geographers in the study of historical geography of Sogd

Norboyev Sarvar Kaxramon ugli  
[sarvarnorboyev075@gmail.com](mailto:sarvarnorboyev075@gmail.com)  
PhD student  
Tashkent state technical university

**Annotation** *The Sogdian oasis, located in the heart of Central Asia, was the economic, cultural, ethnic, linguistic and religious center of the ancient Silk Road. An attempt has been made to scientifically substantiate the fact that Muslim geographers gave different information about the borders of the Sogdian region and the cities and villages included in this region. It is not without reason that Muslim geographers conveyed contradictory information about the location of Sogd, as well as Samarkand and Bukhara, which was a consequence of the political and administrative changes that occurred in the region from time to time. The coming to power of a new ruling dynasty in the region and the implementation of changes in political and administrative governance, the movement of administrative centers, etc. led to the emergence of new ideas among the local population. It is not surprising that Muslim geographers, having heard from local residents about such historical events, began to argue about Sogd and its constituent parts. The article examines the historical geography of the Sogdian oasis, one of the most ancient historical and cultural lands of Central Asia, its borders and active participation in international trade and economic relations, its population and material culture, as well as the level of study of the region, and makes a number of conclusions.*

**Keywords** Sogd, Samarkand, Kesh, Bukhara, Muslim geographers, research, area, region.

---

### Kirish

"So'g'diyona", "Sug'd" yoki "Sug'd o'lkasi" deyilganda, asosan Zarafshon va Qashqadaryo daryolari havzasidagi tabiiy-geografik hududni

o'z ichiga olgan tarixiy hudud tushuniladi. Aslida qadimgi Sug'd uch qismdan: "Markaziy Sug'd" yoki "Sharqiy Sug'd" (asosan Panj-Samarqand/Yuqori Zarafshon), "G'arbiy Sug'd"

(Buxoro vohasi/Quyil Zarafshon) va "Janubiy Sug'd" (Kesh–Naxshab/Qashqadaryo vohasi) dan iborat bo'lgan. Negizida qadim davrlardayoq "sug'diy aholi yashaydigan o'lka" mazmunidagi etnogeografik ma'no yotuvchi ushbu tushuncha miloddan avvalgi VII–VI asrlardan to milodning so'nggi o'rta asrlarigacha bo'lgan vaqt kesimida olib qaralsa, qariyb 2,5 ming yil davomida u yoki bu darajada muayyan bir geografik atama sifatida turli tillardagi yozma manbalarda qo'llanilib kelgani ko'zga tashlanadi. (Norboyev, 2024). Ya'ni, garchi unchalik keng bo'lmasa-da, milodiy XVIII–XIX asrlarga oid fors va turkiy tilli tarixiy adabiyotlarda ham "Sug'd" atamasining geografik nom sifatida saqlanib qolganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

#### **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Bu hududni o'rganishda ayniqsa ingliz olimlari V. Tomashek, X. Gibb, nemis sharqshunosi Y. Markvart, fransuz xitoyshunosi E. Shavann, rossiyalik mashhur sharqshunos V.V. Bartold, O. Smirnova, o'zbek olimlaridan A. Sagdullayev, B. G'oyibov, G'. Boboyorov. M. Ishaqov, A. Kubatinning izlanishlarida hududning geografik joylashuviga oid ma'lumotlar keltirishgan. B. Eshov tadqiqotlariga ko'ra, ilk temir davri O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan Sug'diyona o'lkasi turli qadimgi manbalarda Sug'da, Sug'uda, Sug'diyona nomlari ostida eslatib o'tiladi. Bu nomlarning kelib chiqishi va ularning ma'nosi haqida hozircha aniq fikr yo'q. Ayrim tadqiqotchilar (V. Tomashek) bu nomni eroncha "sus" "yonmoq, yaltiramoq, nur taratmoq so'zidan olingan desa, ayrimlar (O.Smirnova) bu "Gava sug'uda" atamasi "hosildor vohalar o'lkasi" degan ma'noni beradi deb hisoblaydilar. "Avesto"ning Yasht kitobida tilga olingan "Sug'd makoni Gava" Sug'diyonaning eng qadimgi viloyati bo'lgan bo'lishi mumkin. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra (A. Sagdullayev), Gava (Gau) "buqa",

"poda", Qashqadaryo vohasi bilan bog'lanadi. Bu so'z viloyatning juda ko'p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gauxona, Gaumurda, tog'lar Gau cho'qqi Gau va boshqalar). (Eshov, 2019).

#### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolani yoritib berishda tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, kompleks yondashuv hamda muammoviy-xronolik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

#### **Tahlil va natijalar**

"Sug'd" etnogeografik atamasi ham qadimgi davrlarda, ham o'rta asrlarda tor va keng ma'nolarda qo'llanilgan bo'lib, bunga turli davrlardagi siyosiy va etnomadaniy voqealilar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ya'ni, mintaqada yuz bergan migratsiya jarayonlari va siyosiy o'zgarishlar "Sug'd" tushunchasining kengayishiga yoki tor ma'noda qo'llanilishiga olib kelgan va bu holat o'z davri yozma manbalarida o'z aksini topgan (Bo'riev, 2008). Yuqorida aytib o'tilganidek, "Sug'd" deganda asosan Zarafshon va Qashqadaryo daryolari havzasidagi yerlar tushunilishi bilan birga Nurota tog'lari atroflari, bugungi Jizzax viloyati (tarixiy Ustrushona)ning bir qismi ushbu tarixiy-geografik o'lka hududiga kiritilgan.

Miloddan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiy yurishlari davrida yunon (grek) mualliflari Sug'diyona deb Amudaryo va Sirdaryo daryolari orasidagi muayyan bir hududni o'z ichiga oluvchi o'lka to'g'risida yozganliklari ma'lum. Ya'ni, ular Yuqori Amudaryo havzalarida joylashgan tarixiy Baqtriya o'lkasidan shimolda – Amudaryoning o'rta havzasidan shimoli-sharqdagi hududlarni Sug'diyona deb ataganlar. Ulardan qariyb ming yil keyin Markaziy Osiyo hududlaridan o'tgan xitoy rohibi Syuan Szan (629–645) esa Suli (Sug'd) deganda asosan Sirdaryo daryosining o'rta havzalaridan to Baqtriya–Toxaristonning shimolida joylashgan "Temir-darvoza" (bugungi

Darband/Surxondaryo viloyati) tog' guzarigacha bo'lgan hudud haqida yozgan.

Musulmon geograflari esa Sug'd o'lkasining chegaralari va bu o'lkaga tegishli shahar va qishloqlar to'g'risida bir-biridan farqli ma'lumotlar bersalar-da, Samarqand Sug'dning markazi ekanligi borasida biri ikkinchisini tasdiqlaydigan ma'lumotlar yozib qoldirishgan. Samarqanddan farqli o'laroq, Ya'qubiy Buxoroni Sug'dga kiritmaydi. Unga ko'ra, Sug'd shaharlari – Dabusiya, Kushoniya, Kesh va Nasaf va ular orasida eng yirigi bo'lgan Samarqanddan iboratdir (Ekrem, 2003).

Sug'd va uning markaziy shahri Samarqand tarixiy geografiyasi masalasida ancha keng tadqiqot olib borgan V.V. Bartold ayrim manbalarda Samarqand shahri va atroflarining faqatgina bir qismi Sug'dga kiritilgani, Zarafshon daryosi va uning ikki tarmog'i bo'lmish Oqdaryo va Qoradaryo orasida qolgan hudud (orol) Nim Sug'ud "yarim Sug'd", Oqdaryoning shimolidagi Sug'udi Kalon "Katta Sug'd" orasida farq bo'lganiga e'tibor qaratadi.

Muqaddasiy va Yoqut somoniylar vaziri Jayhoniyning asariga tayanib keltirishlaricha, Samarqand Sug'dning eng muhim shahri bo'lib, undan keyin navbati bilan Kesh, Nasaf, Kushoniya va boshqalari keladi. Shu bilan birga, ayrim geograflar Sug'dning markazi sifatida Ishtixonni ko'rsatib, Samarqandning Sug'd markazi sifatidagi o'rniga to'xtalmay o'tishadi. Bunday yondashgan ayrim arab-fors geograflari Buxoroni Sug'dga kiritgan hollar ham uchraydi. Ular bunga dalil sifatida Sug'd (Zarafshon) daryosining Buxorogacha yetib borishini keltirib o'tishadi.

Faqat Muqaddasiy bunday qarashlarga qarshi chiqib, shunday yozadi: "Urdun (lordaniya) daryosi Falastin hududi ichiga qarab oqishiga qaramay Falastinni Urdunga tegishli deb biror kimsa aytmaydi. Shu tariqa Sug'd daryosining Buxoro ichkarisiga qarab oqishi

Buxoroni Sug'dga kiritishga imkon bermaydi. Sug'd daryosi faqatgina u yerdan oqib o'tib, uning yerlarini sug'oradi". Bundan ko'rinadiki, ilk o'rta asrlarda, ya'ni islomdan oldingi davrlarda xitoyliklar An (Buxoro)ni Kan (Sug'd)dan alohida o'lka sifatida ko'rsatganliklari (Aydinli, 2018) kabi IX–XI asrlarda bu o'lkalarga tashrif buyurgan arab-fors geograflari ham Buxoro vohasini Sug'ddan alohida o'lka sifatida talqin qilishgan.

Muqaddasiyning Sug'd haqidagi qarashlari esa quyidagicha: "Sug'd – Samarqand yerlarining barchasini qamrab oladi. Samarqand Sug'dning markazi bo'lib, bu yerning barcha shaharlari unga tobedir. Chunki Samarqand bu o'lkadagi eng qadimiy, eng keng va o'ziga qarashli eng ko'p rustoqlariga ega bo'lgan joydir." Agar birortasi chiqib, "Buxoro boshqaruv va devonlar markazi bo'lsa-yu, nega uni bosh shahar sifatida qabul etmaysan," – desa, unga shunday javob beriladi: U (Buxoro)ning boshqaruv markazi bo'lishi bu shaharning bosh shahar bo'lishini shart qilib qo'ymaydi. Faqat, u somoniy hukmdorlari bu yerni o'zlariga ma'qul topib, Samarqanddan u yerga ko'chib o'tgan bir joydir" (Moqaddasi, 2018)

Musulmon geograflari orasida Sug'd o'lkasi hamda unda Samarqand va Buxoroning o'rne masalasida tortishuvli ma'lumotlar keltirib o'tishlari bejiz bo'lmay, bu narsa vaqti-vaqti bilan mintaqada yuz bergan siyosiy va ma'muriy o'zgarishlar natijasi edi. Mintaqada yangi boshqaruvchi sulolaning hokimiyatni qo'lga kiritishi va siyosiy-ma'muriy boshqaruvga o'zgartirishlarni amalga oshirishlari, boshqaruv markazlarining o'rin almashtirishi va hokozolar mahalliy xalq nazdida yangicha talqinlarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu kabi tarixiy voqeiklarni mahalliy xalq vakillaridan eshitgan musulmon geograflari Sug'd va uning tarkibiy qismlari masalasida turlicha bahs-munozara yuritishlar sabab bo'lganligi ehtimoldan yiroq emas.

Istaxriy ham Buxoroni Sug'd o'lkasiga kiritmaydi. Unga ko'ra, Buxoro sharq tomondan Sug'd o'lkasiga chegaradoshdir. Sug'd o'lkasining bu yo'nalishdagi boshlanishi Buxoroga tegishli bo'lgan Karminiyya (Karmana)dan keyin boshlanadi. Dastlab Dabusiya, keyin Rabinjon (Arbinjon), Kushoniya, Ishtixon va Samarqand keladi. Ushbu shaharlarning barchasi Sug'dni tashkil etadi. Istaxriy Buxoro, Kesh va Nasafni Sug'dga kirituvchilarga qo'shilmaligini aytib o'tadi.

Ibn Havkal esa o'z asarining bir joyida Kesh va Nasaf bilan birga Buxoroni ham Sug'd o'lkasiga kiritish mumkinligini yozib, asarining boshqa bir joyida Sug'd o'lkasining Buxoro tomonidan Karminiyyadan o'tgach, Samarqandga qarashli Dabusiyadan e'tiboran boshlanishini, shu tariqa navbati bilan Rabinjon, Kushoniya va Samarqand kelishi va Sug'd bu yerlardan iboratligini aytib o'tadi. Faqat Ibn Havqal ham ayrim olimlarning Buxoro, Kesh va Nasafni Sug'dga kiritishiga qarshi chiqib, ushbu shaharlarning devonda (ya'ni somoniylar devonida) Sug'ddan alohida hisoblanishini aytib o'tadi (Aydinli, 2018). Shu o'rinda, uning bu masalaga o'sha davr ma'muriy holatidan kelib chiqib yondashganligini aytib o'tish kerak. Bu borada xorijlik tadqiqotchilar ham o'z fikrlarini bildirgan bo'lib, arab va fors geograflari orasida Nasaf va Keshni Sug'dga kiritmaslik holati uchrashi, biroq bunday yondashuv o'z davri ma'muriy-boshqaruv tizimi bilan bog'liq ravishda kelib chiqqanini ta'kidlaydilar.

Damashqiy Sug'd o'lkasining chegaralarini quyidagicha keltirib o'tadi: sharqida Xo'jand, shimolida Sag'oniyon (Chag'oniyon) o'lkasi, Kesh va Nasaf, janubida Arja va Badaxshonga chegaradosh Toxariston o'lkasi, g'arbida esa Buxoro. Ushbu ma'lumotlar birmuncha to'g'ri bo'lsa ham Damashqiyning ayrim o'lka va shaharlarning joylashuv o'rnini yanglish ko'rsatganini aytib o'tish kerak. Chunonchi, Kesh va Nasaf Sug'dning shimolida emas, janubida

joylashgan. Chag'oniyon ham Sug'dning ancha janubida, aniqrog'i, janubi-sharqida o'rin olgan. Xo'jand esa Sug'd o'lkasining sharqida emas, shimoli-sharqida joylashgan. Biroq ushbu muallif tomonidan Sug'dning janubdagi chegarasi Toxaristonga borib tutashadi, degan mazmundagi fikri diqqatga sazovordir.

Yoqut Sug'dning ma'muriy markazi Samarqand ekanini yozib, Sug'dning ikkiga bo'linishi, birinchisi Samarqand Sug'di, ikkinchisi esa Buxoro Sug'di deb atalishiga urg'u beradi. Unga ko'ra, Samarqand Sug'di Buxoro chegarasidan boshlanib, Buttam (Zarafshon/Panjikent) tog'larigacha yetib borgan Sug'd vodiysi bo'ylab cho'zilgan edi (Yakut M, 2018).

Mas'udiy, Mahmud Koshg'ariy, Bakriy va Qazviniy kabi o'sha davr mualliflari Samarqand bilan Buxoro o'rtasida joylashgan o'lkani "Sug'd" deb keltirishgan (Sodiqov, 2017).

Sam'oniyy, Qazviniy va Abul-Fido kabi o'sha davr mualliflari esa Sug'd haqida yozar ekanlar, faqatgina Samarqand Sug'di to'g'risida so'z yuritib, Buxoroning Sug'dga aloqadorligi borasida hech bir ma'lumot bermasdan o'tishgan (Kamoliddin, 2018).

Ushbu ma'lumotlardan musulmon geograflarining Sug'dni muayyan bir o'lka sifatida qadimgi davrlarga nisbatan ancha tor ma'noda tavsiflaganini ko'rishimiz mumkin. Samarqand ayrim mualliflarni istisno qilganda, deyarli barcha musulmon geograflari tomonidan Sug'd tarkibidagi va ushbu o'lkaning bosh markazi sifatida tilga olinishi bilan birga Kesh va Nasafning Sug'dga kirishi yoki teskarisi ekanligi masalasida bir-birini rad qiluvchi ma'lumotlar uchrashi esa o'sha davrdagi siyosiy muhit bilan bog'liq edi.

Musulmon geograflarining ko'pchiligi Buxoro vohasining Sug'dga kirmasligini ilgari surgan bo'lsalar, ba'zi mualliflar esa uni yo Sug'dga kiritishi yoki "Buxoro Sug'di" degan atamani qo'llaganliklari ham diqqatni tortadi. Bu

esa bunday yondashuv mintaqadagi ilk musulmon sulolalari davrigacha uzuq-yuluq ravishda yetib kelgan an'analar bilan bog'liq bo'lsa kerak mazmunidagi qarashlarga imkon beradi. Ya'ni, islomdan oldingi davrlarda Sug'd yanada kengroq hududlarni o'z ichiga olgan va uning aks-sadosi ayrim musulmon mualliflarining asarlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, mintaqada musulmonlar uzil-kesil o'z hokimiyatini o'rnatgach, yangicha ma'muriy islohotlar joriy qilinishi bilan geografik tushunchalar ham o'zgarib, Sug'd deganda ko'proq Samarqand va uning yaqin atroflari tushunila boshlaganini aytib o'tish kerak bo'ladi. Qisqasi, bu davrda markazi Samarqand bo'lgan, Sug'dning yirik shaharlari quyidagilardan iborat bo'lgan deyish mumkin (Axmedov, 1991):

1. Dabusiya, 2. Rabinjon, 3. Kushoniya, 4. Ishtixon, 5. Kesh, 6. Nasaf (Naxshab).

Bu shaharlar yoki kichik hukmdorliklarning deyarli barchasi, ayniqsa Kushoniya, Ishtixon va Kabudon Samarqandga ko'proq tobe, Kesh va Naxshab esa ayrim paytlarda nisbatan tobe edi. Ular Samarqandga tobe bo'lishi bilan birgalikda siyosiy va ma'muriy jihatdan alohida-alohida kichik hukmdorliklar – mulkliklar bo'lib, ulardan har birining o'z hududi, boshqaruvchi sulolasi, boshqaruv markazi, o'ziga qarashli rustoq va qishloqlari mavjud edi. Ular ko'pincha o'z ichki boshqaruvlarida mustaqil, biroq siyosiy va harbiy jihatdan Samarqandga qaram edilar. Muayyan bir konfederatsiyaga birlashgan alohida hukmdorliklar deb atasa bo'ladigan ushbu siyosiy birliklarning umumiy nomi Sug'd, markaziy hukmdorligi esa Samarqand edi. Ya'ni, hududiy jihatdan nisbatan kichik bo'lishlariga qaramay ularning har biriga alohida-alohida viloyat bo'lgan deb emas, kichik hukmdorlik sifatida qarash kerak bo'ladi. Chunki Kushoniya yoki Ishtixon hududi bo'yicha ham kichik bo'lib, biror tuman ko'lamida bo'lsa ham, siyosiy va huquqiy jihatdan ularning mavqei viloyatga nisbatan ancha yuqori edi (Aydinli, 2018).

Arab va fors geograflari asarlaridan ma'lum bo'lishicha, Dabusiya va Rabinjon Samarqandning g'arbida joylashgan bo'lib, Sug'd (Zarafshon) daryosining janubiy havzasida, Xurosonga eltuvchi yo'l bo'yida edi. Rabinjon Buxoroga eltuvchi yo'l yo'nalishida joylashib, Samarqanddan 12 farsax uzoqlikda bo'lsa, Samarqand bilan Dabusiya orasi 17 farsaxni tashkil etardi. Ishtixon esa Samarqanddan biroz shimoli-g'arbda joylashib, Samarqand bilan orasidagi masofa 7 farsax edi. Kushoniya Samarqandning shimoli-g'arbiy tomonida 12 farsax uzoqlikda bo'lib, Ishtixonning g'arbida joylashgan edi. Kushoniya Ishtixon bilan 5 farsax, Rabinjon bilan 2 farsax oraliq masofaga ega edi.

Ham xitoy, ham arab manbalaridan ma'lum bo'lishicha, Samarqand markazi Sug'd mintaqaning eng mashhur va unumdor o'lkasi edi. Bu o'lka sharqdan, ya'ni Panch (Panjikent)dan boshlanib, g'arbga qarab Buxoro vohasigacha cho'zilgan. Muqaddasiy, Yoqut va Qazviniiy kabi geograflar Jayhoniylar keltirgan ma'lumotlarga tayanib, Sug'dning uzunligi 36 farsax, kengligi 46 farsax bo'lganligini yozishadi. Damashqiyga ko'ra, Sug'd o'lkasining ko'lami 12 x 12 farsaxni tashkil etgan.

Jayhoniylar keltirgan bir rivoyatda, Sug'd o'lkasi, geografik joylashuviga ko'ra, inson tasviriga o'xshashi ta'kidlanadi: uning boshi Bunjikas (Panjikent), oyoqlari Kushoniya, sirti Avfar, qorni Kabudonjakas va Turkasfo (ya'ni Marzubon), qo'llari Maymurg' va Buzmajondir.

Qisqasi, Sug'd o'lkasining arab va fors geograflarini o'ziga tortgan jihatlari ulardan bir qanchasining asarlarida biridan-ikkinchisiga ko'chib, ular orasida quyidagi ma'lumot diqqatga sazovordir: "Sug'd, Sug'd daryosi (Zarafshon daryosi)ning o'ngida va so'lida, bir tomoni Buxoro hududiga, boshqa tomoni esa Buttam (Ustrushona) hududiga borib tutashadigan va hech qanday bir to'siq bilan uzilmaydigan muayyan bir vodiya joylashgan

bo'lib, bir uchidan ikkinchi uchigacha uzunligi sakkiz kunlik masofadir. Bu yerda yam-yashil dalalar, bog'lar va adirlar bir-biriga zanjirday bog'lanib ketgan vaziyatdadir. O'lka doimiy ravishda oqib turuvchi daryolar bilan o'ralgan bo'lib, qir-adirlar orasida kichik-kichik ko'llar bor. Daraxtlar va ekin-tekinli maydonlarning yashilligi vodiyning ikki uchigacha cho'zilib ketgan" (Xudoyberganov, 2019).

Sug'd o'lkasining tabiiy-geografik joylashuvi va iqlim xususiyatlari haqida IX–XII asrlarda eslatib o'tilgan ushbu ma'lumotlarga o'xshash ma'lumotlar ancha keyingi davrlarda ham tarixiy va adabiy asarlarda o'rin olganligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Samarqand viloyati va unga yaqin joylashgan viloyat va tumanlar haqida yozar ekan quyidagicha ma'lumotlarni keltirib o'tadi: "Yana Karmana viloyatidir. Samarqand va Buxoro orasidadur. Yana Qorako'l viloyatidir. Borchadin poyon obroqdur. Buxorodin yetti yig'och g'arb shimoliydir. Yaxshi tumonoti bor (va Samarqandni ham yaxshi tumonoti bor). Ul jumladin, Sug'd tumani va Sug'dga payvast tumanlardur. Boshi Yor yayloq, oyog'i Buxoro, bir yig'och yo'l yo'qturkim, kent va ma'mura bo'lmag'ay. Andoq mashhurdurkim, Temurbek degandurkim: mening bir bog'im borkim, tuli o'ttiz yig'ochdur. Bu tumonotni degandur" (Shamsiev, 1999).

Demak, tarixiy Sug'd o'lkasi haqida ilk ma'lumotlar qadimgi fors, yunon va xitoy tillaridagi yozma manbalarda miloddan avvalgi so'nggi ming yillikda uchray boshlagan bo'lib, bunday mazmundagi ma'lumotlar milodning ilk va so'nggi o'rta asrlariga tegishli sug'diy, pahlaviy (o'rta fors), qadimgi turk, arab, fors va boshqa tillardagi manbalarda ham o'rin olganligi ko'zga tashlanadi. Turli tillardagi ma'lumotlar o'zaro solishtirilganda ushbu tarixiy-geografik o'lka asosan Zarafshon va Qashqadaryo daryolari havzalaridagi bir necha viloyat va tumanlarni o'z ichiga olganligi ayon bo'ladi.

#### **Xulosa**

Sug'd vohasi qadimgi O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida, qo'shni hududlar bilan o'zaro munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etgan, xitoy yilnomachilari va arab-fors geograflari yozib qoldirgan ma'lumotlar Sug'd vohasining siyosiy-ma'muriy jihatdan 2 ta qismga – Samarqand markazi Sug'd, Kesh va Naxshabni o'z ichiga olgan Janubiy Sug'd va Zarafshon daryosining quyi oqimidagi G'arbiy Sug'd yoki Buxoro Sug'diga bo'linganini ko'rsatib turibdi. Sug'd vohasining tarixiy-geografik jihatdan bunday bo'linishi asosan tabiiy-geografik omillarga bog'liq bo'lib, har uchala hudud oralig'ida dasht, cho'l, tog' kabi "geografik bo'shliqlar" bo'lganligi bilan bog'liqdir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abu Tohirxoja. "Samariya", B.Axmedov tarjimasini, O'zFASHl qo'lyozmasi Toshkent, 1991. -s. 412.
2. Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yikilishina kadar–Ankara, 2018. – b. 46.
3. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya ..., c. 146–147; Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yikilishina kadar–Ankara, 2018. – b. 51-52.
4. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya / Soch. T. 1. – M., 1963. – c. 132–135; Otaxo'jaev A. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. – Toshkent, ART-FLEX, 2010, – c. 64–65; Norboyev S. Sug'd tarixiy geografiyasiga doir mulohazalar (Ahamoniylar davri misolida) // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari// Toshkent-2024, -b. 35-36.

5. Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne göre Türkistan. Basılmamış doktora tezi. Hacettepe Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü. – Ankara, 2003, – b. 113–114.
6. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Birinchi kitob. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2019, b. 93
7. Hudud ul-olam (Movarounnahr tavsifi). Fors tilidan tarjima, so'z boshi, izohlar va joy nomlari ko'rsatkichi muallifi O. Bo'riev. – T.: O'zbekiston, 2008. – B. 9; Kitab al-masalik al-mamalik Istaxri / "Materiali po istorii kirgizov i Kirgizii". Otv. V.A. Romodin. – Bishkek, 2002. – S. 22; Otaxo'jaev A. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari. Toshkent, ART-FLEX, 2010, b. 8–9.
8. Ibn Havkal, s. 491–492 (Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yikilishina kadar ..., b. 47–48).
9. Kamoliddin Sh. Abu Sa'd 'Abd al-Karim as-Sam'ani i yego trud «Kitab al-ansab». Vajnyy istochnik po istorii i istorii kultury Sredney Azii / LAP – Lambert Academic Publishing RU, 2018, – c. 133–133, 167–168.
10. Kitab al-masalik al-mamalik Istaxri. R. Xudoyberganov tarjiması. O'zFASHI Toshkent, 2019, s. 22–33.
11. Koshg'ariy, Mahmud. Turkiy so'zlar devoni (Devonu-lug'ot it-turk) / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. M. Mutallibov. 3 tomlik. – T.: Fan, 1960–1963. – 1-tom, – c. 66; Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni). Nashrga tayyorlovchi: Q. Sodiqov. – Toshkent: G'. Gulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – B. 25.
12. Moqaddasi, 217 (Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yikilishina kadar ..., b. 47).
13. Yakut. Mucemu'l-buldan. III, p. 409–410 (Aydinli O. Semerkant tarihi – fethinden Samanilerin yikilishina kadar ..., b. 48).
14. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiev. – Toshkent., Yulduzcha, 1999. – B. 47.